

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**

<i>Normurodova S.B., Shodmonov R.G'. Til va marketing .....</i>	166
<i>Odilova D.O., Shodmonov R.G'. East asia counturies languages and cultures .</i>	171
<i>Nabiyeva N.A., Shodmonov R.G'. Til o'qitish usullari; o'rganilayotgan tillarni o'qitish uchun qo'llaniladigan usullar, til o'rganishning foydali tomonlari.....</i>	176
<i>Narzullayeva A.Sh., Shodmonov R.G'. Onlayn til o'rganish platformalari .....</i>	180
<i>Junaydullaxonova M.A., Shodmonov R.G'. Kitobxonlik va uning mohiyatini anglash .....</i>	184
<i>Yaxshiboyeva M.B., Shodmonov R.G'. Dunyo tillarining soni va turkiy til .....</i>	189

## II SHUBA

<i>Абдалов А.Б. Роль развития рынка ценных бумаг в дальнейшем повышении инвестиционной привлекательности страны .....</i>	193
<i>Saidova I.X. Investitsion muhit va uni belgilovchi omillar (kambag'allik darajasi va o'zbekiston sharoitida unga ta'sir qiluvchi omillar.) .....</i>	199
<i>Sunnatullayeva M.G'. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar - xalq kelajagi uchun poydevor masalalari.....</i>	205
<i>Kenjayev N. Temuriyzoda shohruh mirzo hukumronligi davrida temuriylar saltanatida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha tabobat maktablarining faoliyati.....</i>	208
<i>Атаджанова А.У. Определить концентрированной системы в составе чёрный смородины выращиваемой в хорезмской области.....</i>	211
<i>Mohinur Sh.Sh., Shodmonov R.G'. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limning o'rni.....</i>	213
<i>Sobirjonova D., Shodmonov R.G'. Koxlear implant bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.....</i>	218
<i>Sayfullayeva F., Shodmonov R.G'. Bolalardagi senzetiv davr va nutq rivojlanishi .....</i>	222
<i>Xamidullayeva M.J., Shodmonov R.G'. Maxsus pedagogika va uning bo'limlari .....</i>	226
<i>Alieva F., Shodmonov R.G'. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar .....</i>	230
<i>Qurbonova K.A., Shodmonov R.G'. Bolalarda musiqani rivojlantirish.....</i>	234
<i>Komilova R.D., Shodmonov R.G'. Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar .....</i>	237
<i>Turlibekova O., Shodmonov R.G'. Aqli zaif tushunchasi .....</i>	242
<i>Abdugafurova A., Shodmonov R.G'. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar....</i>	247
<i>Zayniddinova M.Sh., Shodmonov R.G'. Daun sindromli bolalar .....</i>	251

# HARAKAT TAYANCH A'ZOLARIDA BUZILISH BO'LGAN BOLALAR

**Komilova Ra'noxon Dilmurodovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>*Xalqaro Nordik universiteti  
Maxsus pedagogika(logopediya)  
1-kurs 1–MP-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>*Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar, ya'ni BSF (bolalar serebral falaji) tashxisli bolalar haqida va ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar, ular bilan ishlashda maxsus pedagogikaning samarali metodlari.

**Kalit so'zlar:** Harakat tayanch a'zolari, travma, stress, BSF, organik buzilish, reabilitatsiya, korreksoin-pedagogik, anketa, tashxis.

Har birimizga ma'lumki, kelajakda onalardan sog'lom bolalar tug'ilishida atrof-muhitning ta'siri katta. Homila paytida yoki tug'uruqdan so'ng orttirilgan turli travmalar, stress va shu kabi holatlar natijasida hozirgi kunda Bolalar serebral falaji tashxisli bolalar ko'paymoqda. Bolalar serebral falaji miyaning harakatlanish markazlarini buzilishi oqibatida tayanch harakat a'zolarining falajlanishidir. Bolada qo'l-oyoqlar yoki yuz muskullarining harakatini nazorat qiluvchi miya qismlari shikastlanishi natijasida tananing harakatchan a'zolari jonsizdek osilib turadi yoki juda ko'p hollarda tarang tortishgan holatda bo'ladi. Serebral falaj bolalarda bosh yoki yuz muskullarining harakatlarini nazorat qila olmasligi yoki bunda qiyinchiliklarga duch kelganligi, til muskullarining falajlanganligi oqibatida nutqida ham og'ir nuqsonlar kuzatiladi. Bundan tashqari bunday falaj bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ko'rish, eshitish idrokida ham nuqsonlar kuzatiladi. Serebral falaj bolalarning mayda qo'l motorikasida ham juda qo'pol buzilishlar yuzaga keladi. Shuning uchun ham ularni yozma nutqga o'rgatish qiyin kichadi.

Serebral falajlik nuqsonning eng murakkablashgub turidir, chunki miyaga zarar yetishi natijasida bolada ba'zida umumiy aqliy qobiliyatlar ham buzilishi mumkin. Aqliy buzilishning darajasi falajlanish darajasiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ammo serebral falaj bolalarning hammasida ham aqliy rivojlanishda orqada qolishi mavjud bo'lmaydi. Ushbu nuqsonni keltirib chiqaruvchi sabablar 3 turga bo'linadi: Birinchisi **Perenatal davr** (homiladorlik vaqtidagi), ikkinchisi **Natal davr** ( tug'uruq vaqtidagi) va uchinchisi **Postnatal davr** (tug'uruqdan so'ng bola hayotining bir yoshgacha bo'lgan vaqti) larni o'z ichiga oladi. Bu davrlarda sodir bo'luvchi holatlar: Ona sog'lig'ining holati; homiladorlikka ta'sirlari; nasldagi nuqsonli rivojlanish omillari; gormonal buzilishlar; qon aylanishdagi buzilishlar; onadagi estrogen gormoning yetishmasligi va tug'uruq vaqtidagi asfeksiya; boladagi turli jarohatlar tufayli ushbu nuqson, ya'ni BSF tashxisi kuzatilish ehtimoli katta. Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar bosh miyaning harakat zonalari va

harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarning birlamchi jarohatlanishi va nutq harakat tizimlarining erta organik buzilishi bilan boshqa me'yordagi bolalardan farq qiladi. Bu tashxisni bola tug'ilishi bilanoq aniqlash mumkin, chunki falajlanish natijasida jarohat ko'zga yaqqol ko'rinishi ham bu falajlik keyinchalik aniqlanishi ham mumkin. Yuqoridagi ta'sirlar natijasida bolaning bosh miyasida turli xildagi jarohatlanishlar kelib chiqadi. Bosh miyadagi harakat markazlarining jarohatlanish darajasi, turi va xususiyatlariga ko'ra bolada harakat tayanch a'zolarida turli xildagi falajlanishlarni keltirib chiqaradi.

Shu kabi holatlar kuzatilmasligi uchun har bir ayol borki, nafaqat ayol balki bo'lajak ona bo'lmish yosh qizlarning ham ruhiy va jismoniy jarohatlardan avaylab-asrash zarur. Turmush qurish vaqtida ham ikki yosh bir-birining nasliga ham ahamiyat bersa, og'ir nuqsonli shaxslar anchaga kamayar edi. Ota-onalar ham doimiy ravishda farzandlariga beparvo bo'lmay, ularning rivojlanish holatini kuzatib borishi zarur. Shu bilan birga qachon kimga murojaat qilish haqida ham o'zlari uchun bilib olishsa, barcha og'ir holatlarning oldi olinadi. BSFning asoratlarini sezgan zahoti mutaxassislariga xabar berish zarur. Alomatlarini qanday?

**Kutilmaganda tananing qotib qolishi.** Bunda bolaning orqasi bilan yotqizish yoki bag'irga bosish kerak bo'lganda tanasini egish qiyin bo'ladi.

**Tananing bo'shshishi.** Chaqaloqning boshi bo'shshagan bo'ladi va boshini ko'tara olmaydi. Ko'tarib turganda uning boshi va oyoqlari osilib turishi mumkin. Juda kam harakatlanishi ham mumkin.

**Sekin rivojlanish.** Bola odatdagidan sekin rivojlana boshlaydi. Tanasining bir qismidan boshqasiga nisbatan ko'proq foydalanishi mumkin. Masalan, ba'zi bolalar ikkita qo'lidan ko'ra faqat bitta qo'lidan foydalanadi.

**Sust ovqatlanish.** Emish va ovqatni yutish sust bo'ladi. Bola tili bilan sut va ovqatni og'zidan chiqarib tashlaydi. Og'zini yopishda qiynaladi.

**Noodatiy xatti-harakatlar.** Bola yomon uxlaydigan va ko'p yig'laydigan, ko'p bezovtalanadigan bo'lishi mumkin yoki ko'p uxlaydigan va ko'p tovush chiqarmaydigan bo'lishi mumkin. Uch oylik bo'lguncha kulmasligi ham mumkin.

Ko'p holda bu falajlik ko'pgina oilalarning buzilib ketishi va moddiy jihatdan qiynalishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar tobora sinovga chidamsiz va kuchsiz bo'lib borayotgani tufayli bola bu kabi nuqson bilan tug'lsa, go'yo hech kimda ayb yo'q va hamma ayb shunday tug'ilgan bolada.

Bu kabi nuqson bilan tug'ilgan yoki orttirib olgan bolalarni rehabilitatsiyalashtirish markazlari asta-sekin ko'paymoqda va bu xalq manfaati yo'lida qilinayotgan katta mehnatlar samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu jumladan nodavlat markazlar va klinikalarning yurtimizda 161 dan ortig'i o'z faoliyatini olib bormoqda. Bulardan biri "Imkon" rehabilitatsiya markazi bo'lib, 2022-yili oktabr oyida Toshkent shahar Qibray tumanida ochildi. Birinchi bo'lib Nukusda 2019-yilda ochilgan bu markaz hozirda Samarqandda, Andijonda va Qashqadaryoda o'z filiallari mavjud. Biroq faqat Toshkentdagi markazda rehabilitatsiyalashtirish uchun eng samarali va yangi texnologiyalar mavjud. Ular qimmatbaho va viloyatdagi filiallarga yetkazishning iloji yo'q. Poytaxtda istiqomat qiluvchilar yoxud viloyatlik bo'lsa-da, mablag'dan muammosi yo'qlar albatta kelib ketishlari mumkin. Bu markazlarning katta yutug'i va xalqqa manzur jihati ularning

bepulligida. Shunga qaramay maxsus texnikalar faqat poytaxtda bo'lsa-yu, viloyatda bo'lmasa tabiiyki, moddiy jihatdan qiynalganlar yo'l haqi va farzandini qanday qilib olib kelishi haqida ko'p o'ylab qiynalishlari mumkin. Hamma ham farzandlarini tezroq shifo topishini istab harakat qiladi. Buning oldini olish maqsadida fond tashkil qilib hech bo'lmaganda viloyatdagi markazlarning biriga Toshkentdagidek texnologiyalar bilan ta'minlansa, o'ylaymanki, xalqning anchagina mushkulini yengil qilib duolarini olgan bo'lar edik. Albatta, hozir ham hamma sharoitlar a'lo darajada.

Men talabaman va hali erta diyishlariga qaramasdan biz ustozimiz boshchiliklarida amaliyot o'tash uchun ko'p muassasalarga, tashkilotlarga borishga ulgurdik. U yerdagi yurtdoshlarimizni, jajji bolalarni ko'rib ichinggizda hatto nima kechayotganini ham anglay olmaysiz. Avvalambor, bularning bari Alloh inoyati ila, biroq shunday bo'lsa ham oilasi bilan yashayotgan alohida yordamga muhtoj bolalarni ko'rib, hali uchalik bemehr bo'lishga ulgurmabmiz, hali yashayotgan ekanmiz deb o'ylab qolaman. Sababi shuki, maktablar va tashkilotlardagi biz ko'rgan bolalarning barchasi ota-onasi yoki boquvchisi bilan yashaydi. Yana ham mehribonlik uylariga bormadik, hali u yerda qancha bolalar qay holda ekan? O'zbek xalqi bariga chidaydi, biroq borgan sari hatto yashash ham qiyinlashib borayotganining sababi bo'lmish narx-navolarning keskin oshishidek muammolar barchamizni qiynab qo'ymoqda. Shunday ekan nogironligi bo'lgan shaxsning nafaqasi bo'lsa ham hozirda ulardan tashqari ko'p harajatlar ketib qolyapti. To'g'ri, guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, oramizda nafaqat ishonchni hatto o'zganing haqini ham hech bir noqulayliklarsiz suiste'mol qilib kelayotganlarning sanog'i yo'q. Boqimandachilik, nogironligi bo'lgan shaxslardan foydalanish kabi holatlarga ko'p uchraymiz. Misol qilib aytsam, tayanch harakat a'zosi buzulgan shaxsni yerosti o'tish yo'lida aravaga o'tirgizgan holda tilamchilik qilayotgan sog'lom ayolni ko'rganimda haq-huquqim toptalgandek bo'lib ketdim. Imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqi yo'q deb o'ylashadi, aslida o'sha ayol uchun nafaqa ham berilishi aniq, shunchaki inson ko'zi to'ymagan bu pullar yanada foydalanishni ko'zlaganligi achinarli hol. Bu aytganimdek holga juda ko'p duch kelamiz, biroq deyarli odatiy holdek ko'ringan bu kabi ishlarning ham oldini olib ularni reabilitatsiya markazkariga va mutaxassislarga jalb qilinsa, hech bo'lmaganda 60/100% oldini olsak ajab emas. Nazarimda, chindanam biror fond tashkil qilinib chet eldan olib kelinadigan qimmatbaho asbob-uskunalarni viloyatda yetib borish qulaylaridan biriga yetkazilsa, nafaqat imkoniyati cheklanganlar, balki ularga mas'ul shaxslarning ham mushkulini oson qilgan bo'lamiz.

### **Harakat tayanch a'zolari buzilgan bolalar bilan ishlash metodlari va davolash chora-tadbirlari bilan tanishib chiqamiz.**

Nogironligi bo'lgan shaxslarni sog'lomlashtirish, jamiyatga moslashtirish va reabilitatsiyalashtirish, korreksion-pedagogik ish olib borish katta ahmayyatga ega. Tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalardagi nuqson turi va darajasini hisobga olib erta reabilitatsiya qilish, ya'ni davolov chora-tadbirlarining uchta turi farqlanadi:

- Tibbiy-pedagogik reabilitatsiya. Bunda tayanch harakat a'zolari falajlangan bolaning tibbiyot hodimlari tomonidan jismoniy holatidan kamchiliklarni tiklash

bilan barobar korreksion-pedagogik ishlar ham olib boriladi. Reabilitatsiyaning bu turida bola jismoniy va pedagogic jihatdan rivojlantiriladi.

- Kasbiy reabilitatsiyaning maqsadi tayanch harakat a'zolarida buzilish bo'lgan bolalarni mutaxassis defektologlar (Pedagog va boshqa defektologlar) tomonidan maxsus korreksion ishlarni olib borilishini ko'zlaydi.

- Psixologik reabilitatsiya. Reabilitatsiyaning bu turi tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalarning psixologik rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olishga, emotsional doirasini, individual shaxsiy xususiyatlarni yaxshilashga, ijtimoiy moslashuvini samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalar bilan olib boriladigan psixologik reabilitatsiya ishlari psixolog tomonidan amalga oshiriladigan.

Tayanch harakat a'zolarida buzilish bo'lgan bolalardagi nuqsonlarni korreksiyalashda samarali natijalarga erishish, kompleks-pedagogik yordamni tashkil etish, ikkilamchi chuqur nuqsonlarni oldini olish va umumta'lim muassasalariga jalb etish uchun bola hayotining ilk davridan boshlab yuqorida keltirilgan uchta yo'nalishlardagi davolov chora-tadbirlarini, reabilitatsion ishlarni kompleks va izchil tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Serebral falaj bolalarni davolov-korreksion rivojlantiruvchi, reabilitatsion ish tizimi fizioterapevt, davolovchi gimnastika mutaxassisi, nevropatolog, pedagog va iglorefleksoterapevtning kompleks yordami asosida amalga oshiriladi. Turli terapiyalar ham serebral falaji uchun juda foydali. Ulardan: Ippoterapiya (ot minib, ustida turli mashqlar bolaning harakat tayanch a'zolari uchun juda samarali natija beradi va psixologik jihatdan, his-tuyg'ular bilan bog'lanishni o'rgatadi), musiqaterapiya (eshitishiga, kayfiyatiga foyda), sujogterapiya (mayda qo'l motorikasini yaxshilaydi, sezgi organlarini uyg'otadi) va ko'p shu kabi ham qiziqarli ham foydali terapiyalar turli muammolari bo'lgan bolalarga o'z samarasini bermay qolmaydi. Logopedlar ham serebral falajli bolalar bilan ko'p ishlashadi, sababi aytib o'tganimizdek, ularning artikulyatsiya muskullari ham falajlanib qolgan bo'lib ancha katta mehnat talab qiladi.

Tayanch harakat a'zolari buzilgan bolalarning psixologik xususiyatlari juda xilma-xildir. Shuning uchun ham bu bolalarni psixologik xususiyatlarni o'rganish ularning nuqsonini korreksiyalashda, ikkilamchi nuqsonlarni oldini olishda juda muhimdir. Maxsus pedagog va mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra, tayanch harakat a'zolari falajlangan bolalarni psixologo-pedagogik o'rganishda quyidagi tekshirish metodikasiga asoslanish mumkin. Tekshirish natijalarini quyidagicha qayd qilib borish mumkin:

1. Bola haqidagi umumiy ma'lumotlar (F.I.Sh, turar joyi, ota-onasi haqidagi ma'lumotlar).
2. Nuqson sabablari va tashxis.
3. Jismoniy rivojlanganlik holati.
4. Bolalar serebral falajining qaysi bir shakli.
5. Umumiy va mayda qo'l motorikasining rivojlanganlik darajasi.
6. Harakatlarining moslashuvchanligi, fazoda mo'ljal olishi
7. Analizatorlarining (ko'rish, eshitish qobiliyatlarining) holati.
8. Hissiy-idoraviy jabhasi, fe'l-atvori.

- A) Xulqi (jizzaki, tez, yig'loqi, indamas, sho'x, qo'rqqoq va hokazolar)
  - B) Kattaalar va bolalar bilan muloqotda bo'lish xususiyatlar
  - C) Atrof-muhitga munosabati
9. O'z-o'ziga xizmat qilish, gigiyena malakalarning shakllanganligi.
    - A) Kiyinish, yechinish, kiyimni ilib qo'yish holati
    - B) Yuvinish, tishini tozalash, xojatxonaga kirish
    - C) Ovqat paytida o'zini tuta bilish, ovqatlanish ko'nikmalari
  10. Mehnat jarayonida ishtiroki.
    - A) Berilgan ishni qila olishi
  11. O'yin faoliyatidagi holatini aniqlash (o'yinga kirishishi, ijodkorligi, sevimli o'yinchoqlari, o'yinchoqlardan maqsadga muvofiq foydalana olishi, o'yinning davomiyligi, bir o'yindan ikkinchisiga o'tishi va hokazo).
  12. Tekshiruvchiga munosabati.
  13. Diqqat xususiyatlari (davomiyligi, faslliligi, turg'unligi, ko'chishi, ishchanligi, tez charchashlik).
  14. Bilim va tasavvurlari (tevarak atrofdagi hodisa va voqealarni, atrofdagi muhitni, yoshini, ismi-sharifini, oila a'zolarining nomini bilish, rasmlarni nomlay olishi, tasvirlangan narsaning qismlarini topish).
  15. Sezgilari.
  16. Idrok xususiyatlari.
  17. Xayol xususiyatlari.
  18. Aqliy rivojlanish
    - A) Ranglarni bilishi
    - B) Shakllarni bilishi
    - C) Kattalik (katta, kichik, xuddi shunday, bir xil)
    - D) Miqdor haqidagi bilimlarini tekshirish (bitta, kam, ko'p, bir qancha)
    - E) Vaqt haqidagi tasavvurlarini tekshirish (ertalab, kechqurun, tun, kecha, bugun, yil fasllari, hafta kunlari)
    - F) Buyum vazifalarini bila olishini tekshirish
    - G) Umumlashtirish malakalarini tekshirish.
  19. Ko'rish, yasash ko'nikmalarini tekshirish.
  20. Rasm chizish ko'nikmalari.
  21. Loy va plastilin bilan ishlash.
  22. Mayda qo'l motorikasining holati.
  23. Xotirani tekshirish.
  24. Hissiyotini tekshirish.
  25. Yordamni qabul qilishi.
    - A) Foydalanadimi yo'qmi?
    - B) Tanbehga munosabati
  26. Nutqi haqida umumiy ma'lumotlar
    - A) Tovushlarning talaffuzini tekshirish
    - B) Og'zaki nutqi va faol lug'ati
    - C) Bog'langan nutqi
    - D) Nutqning imlo tuzilishi

Ushbu tekshiruv anketasi yordamida jismoniy nogironligi bo'lgan bolalarning qay tartibda korreksion-pedagogik va rehabilitatsiya ishlarini mujassam holda amalga oshirish yo'llari aniqlanadi.

Xulosam so'nggida shuni aytmoqchimanki, har bir kamchilikni vaqtida bartaraf etmasak, u nuqsonga aylanadi va uning ustida juda ko'p ishlash talab etiladi. Shuning uchun o'zimizga qancha e'tiborli bo'lsak va o'z qadrimizni bilgan kunimizdan boshlab bu kabi nuqsanlar yo bizni yo farzandlarimizni bezovta qilmaydi. Imkonsizlikdan og'irroq dard yo'q, shu bois imkoniyatlarni kengaytirishda davom etishimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mo'minova L.R, Harakat tayanch a'zolarida buzilish bo'lgan bolalar haqida ma'ruzasi.
2. <https://clinics.uz/uzb/catalog/medical-centers/rehabilitation>
3. Baxadirova Z.A, ma'ruzalar to'plami
4. <https://daryo.uz/2022/11/28/qibray-va-qarshida-yangi-imkon-reabilitatsiya-markazlariga-ega-mttlar-ishga-tushdi>

## **AQLI ZAIF TUSHUNCHASI**

**Turlibekova Ozoda<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Maxsus pedagogika(logopediya)  
1-kurs 1–MP-23 guruh talabasi  
[ozodaturlibekova80@gmail.com](mailto:ozodaturlibekova80@gmail.com)*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis ilgari aqliy zaiflik deb ataladigan aqliy zaiflik tushunchasini va uning oqibatlarini o'rganadi. U aqliy qobiliyatsizlikni aqliy faoliyat va adaptiv xatti-harakatlarda sezilarli cheklovlar bilan tavsiflangan neyrorivojlanish holati sifatida tushunishni o'rganadi. Izoh yanada hurmatli va inklyuziv tilni targ'ib qilish uchun terminologiyaning "aqliy zaiflik" dan "aqliy nogironlik" ga o'tishini ta'kidlaydi.

Tezisdan aqliy zaiflikning turli sabablari, jumladan genetik va atrof-muhit omillari, shuningdek, ushbu populyatsiyada kuzatilgan kognitiv va funktsional qobiliyatlarning keng doirasi muhokama qilinadi. U shaxsning intellektual faoliyati va moslashuvchan xatti-harakatlar darajasini aniqlash uchun ko'p o'lchovli baholash yondashuvining muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Oligofrenopedagogika, egoizm,deletsiya, translokatsiya, fenilketonuriya, galaktozemiya, gistidinamiya, gistinuriya, tirozinemiya, fruktozuriya